

## TARIX

1. Quyida berilgan hukmdorlardan qaysi biri “to‘rt iqlim mamlakatlari podshosi” unvonini olgan?

A) **Sargon I** B) *Tutmos II*  
C) *Navuxodonosor II* D) *Menes*

Test topshig‘i jahon tarixining qadimgi davriga oid. Birinchi qiyinlik darajasidagi test topshirig‘i hisoblanadi. Sargon I mil.avv. 3-ming yillikning ikkinchi yarmida o‘z hukmronligi ostida Akkad va Shumer shaharlarini birlashtirdi. Qo‘shni mamlakatlarni zabt etib, “to‘rt iqlim mamlakatlari podshosi” unvonini olgan.

**To‘g‘ri javob: A.**

**Manba:** 6-sinf. “Qadimgi dunyo tarixi”. 48-bet. (A.S.Sagdullayev, V.A.Kostetskiy. Toshkent-2017)

2. Milodiy IV asrda Rim imperiyasini boshqargan imperatorlarni toping.  
1) Trayan; 2) Feodosiy; 3) Romul Avgustul;  
4) Konstantin

A) **2, 4** B) *1, 3* C) *1, 4* D) *2, 3*

Test topshig‘i jahon tarixining qadimgi davriga oid. Ikkinchi qiyinlik darajasidagi test topshirig‘i hisoblanadi.

1) Trayan – I-II asrlarda; 2) Feodosiy – IV asrda; 3) Romul Avgustul – V asrda  
4) Konstantin – IV asrda Rim imperiyasini boshqargan.

**To‘g‘ri javob: A.**

**Manba:** 6-sinf. “Qadimgi dunyo tarixi”. 168-169-betlar. (A.S.Sagdullayev, V.A.Kostetskiy, Toshkent-2017)

3. Quyidagi qaysi jang 1402-yilda bo‘lib o‘tgan?

A) **Anqara jangi** B) *Mansikert jangi*  
C) *Bosvort jangi* D) *Gastings jangi*

Test topshirig‘i Jahon tarixining o‘rta asrlar davriga oid. Birinchi qiyinlik darajasidagi test topshirig‘i hisoblanadi. A) Anqara jangi – 1402-yil; B) Mansikert jangi – 1071-yil; C) Bosvort jangi – 1485-yil; D) Gastings jangi – 1066-yil.

**To‘g‘ri javob: A.**

**Manba:** 7-sinf. “Jahon tarixi”. 124-bet. (T.O‘. Salimov, F.E.Sultonov. Toshkent-2017)

4. Buyuk Britaniya mustamlakasi bo‘lgan «oq koloniya»ni toping.

A) **Avstraliya** B) *Hindiston* C) *Eron*  
D) *Afg‘oniston*

Test topshirig‘i jahon tarixining yangi tarix davriga oid. Birinchi qiyinlik darajasidagi test topshirig‘i hisoblanadi. Amerika, Afrika va Avstraliyaga Buyuk Britaniya va Yevropaning boshqa mamlakatlaridan ko‘chib borgan kishilar o‘zlashtirgan hududlar “Oq mustamlakalar” deb atalgan. Avstraliya Buyuk Britaniyaning “oq koloniya”si hisoblanadi.

**To‘g‘ri javob: A.**

**Manba:** 8-sinf. “Jahon tarixi”. 100-bet. (R.Farmonov, U.Jo‘rayev, Sh.Ergashev. Toshkent-2019)

5. 1830-yilda Parij shahrida boshlangan inqilobning maqsadi nima edi?

A) **respublika tuzumi o‘rnatish**  
B) *cheklangan monarxiya tuzumi o‘rnatish*  
C) *imperiyaning qayta tiklash*  
D) *ishchilarga saylov huquqi berish*

Test topshirig‘i jahon tarixining yangi tarix davriga oid. Ikkinchi qiyinlik darajasidagi test topshirig‘i hisoblanadi. Fransiya qiroli Karl X tomonidan 1830-yil mamlakat parlamenti tarqatib yuborildi. Qirol fuqarolarining saylov huquqlarini yanada cheklashini ma‘lum qildi. Bu esa Parij shahrida inqilob boshlanishiga olib keldi. Inqilobning asosiy maqsadi Fransiyada Respublika tuzumini o‘rnatish edi.

**To‘g‘ri javob: A.**

**Manba:** 8-sinf. “Jahon tarixi”. 105-bet. (R.Farmonov, U.Jo‘rayev, Sh.Ergashev. Toshkent-2019)

6. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida quyidagi qaysi hududda Italiyaning mustamlaka rejalari amalga oshmadi va bu hudud o‘z mustaqilligini saqlab qoldi?

- A) **Efiopiya** B) *Somali* C) *Liviya*  
D) *Eritreya*

Test topshirig‘i jahon tarixining yangi tarix davriga oid. Birinchi qiyinlik darajasidagi test topshirig‘i hisoblanadi. Italiya Efiopiyani o‘z mustamlakasiga aylantirish maqsadida 1896-yilda bu davlatga hujum qildi. Adua yonida Italiya qo‘shinlari tor-mor etildi va Efiopiya o‘z mustaqilligini saqlab qoldi. Somali, Liviya, Eritreya esa Italiya mustamlakasiga aylangan.

**To‘g‘ri javob: A.**

**Manba:** 9-sinf. “Jahon tarixi” 85-, 123-betlar. (M.Lafasov, U.Jo‘rayev, E.Xoliqov, D.Qodirova. Toshkent-2019)

7. Fors mamlakati nomi nechanchi yildan Eron deb ataladigan bo‘ldi?

- A) **1935-yildan** B) *1919-yildan*  
C) *1924-yildan* D) *1937-yildan*

Test topshirig‘i jahon tarixining eng yangi tarix davriga oid. Birinchi qiyinlik darajasidagi test topshirig‘i hisoblanadi. 1935-yildan mamlakatning nomi o‘zgartirilib, ilgari Fors o‘rniga Eron deb ataladigan bo‘ldi.

**To‘g‘ri javob: A.**

**Manba:** 10-sinf. “Jahon tarixi”. 59-bet. (Sh.Ergashev, B.Xodjayev, J.Abdullayev. Toshkent-2017)

8. Ikkinchi jahon urushi yillarida gitlerchilarga qarshi koalitsiya davlatlarining o‘zaro munosabatlariga oid asosiy masalalar SSSR, AQSh va Buyuk Britaniya liderlarining qaysi shaharlarda bo‘lib o‘tgan uchrashuvlarida hal qilingan?

- 1) Yalta; 2) Minsk; 3) Potsdam; 4) Gdansk;  
5) Bag‘dod; 6) Tehron

- A) **1, 3, 6** B) *2, 4, 5* C) *1, 3, 5*  
D) *2, 4, 6*

Test topshirig‘i jahon tarixining eng yangi tarix davriga oid. Ikkinchi qiyinlik darajasidagi test topshirig‘i hisoblanadi. Urush yillari gitlerchilarga qarshi koalitsiya davlatlarining o‘zaro munosabatlariga oid asosiy masalalar SSSR, AQSh va Buyuk Britaniya liderlarining uchrashuvlarida hal qilingan. Urush davomida shunday uchrashuvlar uchta - Tehron (1943-yil), Qrim (Yalta)da (1945-yil), Potsdamda (1945-yil) bo‘lib o‘tgan.

**To‘g‘ri javob: A.**

**Manba:** 10-sinf. “Jahon tarixi”. 72-bet. (Sh.Ergashev, B.Xodjayev, J.Abdullayev, Toshkent-2017)

9. 1990-yil sentabr oyida ikki nemis davlatini bitta – Germaniya Federativ Respublikasiga birlashtirish to‘g‘risidagi shartnoma qaysi shaharda imzolangan?

- A) **Moskvada** B) *Berlinda*  
C) *Londonda* D) *Bonnda*

Test topshirig‘i jahon tarixining eng yangi tarix davriga oid. Birinchi qiyinlik darajasidagi test topshirig‘i hisoblanadi. 1990-yil sentabr oyida Moskvada ikki nemis davlatini bitta – Germaniya Federativ Respublikasiga birlashtirish to‘g‘risida shartnoma imzolangan.

**To‘g‘ri javob: A.**

**Manba:** 11-sinf. Jahon tarixi 10-bet. (Sh.Ergashev, B.Xodjayev, J.Abdullayev. Toshkent-2018)

10. Quyidagilardan 1938-yilda Myunxen kelishuvini imzolagan shaxslarni toping.  
 1) Nevill Chamberlen; 2) Uinston Cherrill;  
 3) Vudro Vilson; 4) Benito Mussolini;  
 5) Paul Gindenburg; 6) Adolf Gitler;  
 7) Eduard Dalade; 8) Jorj Klemanso  
 A) **1, 4, 6, 7** B) 1, 4, 5, 8 C) 2, 3, 6, 7  
 D) 2, 3, 5, 8

Test topshirig'i jahon tarixining eng yangi tarix davriga oid. Uchinchi qiyinlik darajasidagi test topshirig'i hisoblanadi. Boshlanishi muqarrar bo'lib qolgan urushni sharqqa qarab yo'naltirish maqsadida Nevill Chamberlen Adolf Gitler, Benito Mussolini va Eduard Dalade bilan birgalikda 1938-yili Myunxen kelishuvini imzoladi.

**To'g'ri javob: A.**

**Manba:** 10-sinf. "Jahon tarixi". 15-bet. (Sh.Ergashev, B.Xodjayev, J.Abdullayev. Toshkent-2017)

11. Quyidagi qo'zg'olonlardan qaysi biri Somonxudotning nabiralari tomonidan bostirilgan?

- A) **Rofe ibn Lays boshchiligidagi qo'zg'olon**  
 B) "Oq kiyimlilar" qo'zg'oloni  
 C) Abu Muslim boshchiligidagi qo'zg'olon  
 D) G'urak va Divashtich boshchiligidagi qo'zg'olon

Test topshirig'i O'zbekiston tarixining o'rta asrlar davriga oid. Ikkinchi qiyinlik darajasidagi test topshirig'i hisoblanadi. 806-yilda arab lashkarboshchisi Rofe ibn Lays boshchiligida xalifalikka qarshi qo'zg'olon ko'tariladi. Xuroson noibi Ma'mun Somonxudotning nabiralari Nuh, Ahmad va Yahyolardan iltimos qilib, yordam so'raydi. Qo'zg'olon Somonxudot nabiralari tomonidan bostiriladi.

**To'g'ri javob: A.**

**Manba:** 7-sinf. "O'zbekiston tarixi". 37-bet. (A.Muhammadjonov. Toshkent-2017)

12. O'rta Osiyoning quyidagi shaharlari Podsho Rossiyasi qo'shinlari tomonidan egallangan yillariga qarab to'g'ri xronologik tartibda ko'rsatilgan javobni belgilang.

- 1) Kattaqo'rg'on; 2) Namangan; 3) Jizzax  
 A) **3, 1, 2** B) 3, 2, 1 C) 1, 3, 2  
 D) 1, 2, 3

Test topshirig'i O'zbekiston tarixining XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlaridagi davrga oid. Ikkinchi qiyinlik darajasidagi test topshirig'i hisoblanadi. Rossiya imperiyasi O'rta Osiyoga istilochilik yurishlari davrida bosib olgan shaharlarning yillarini belgilaymiz va ularni xronologik tartibda joylashtiramiz.

- 1) Kattaqo'rg'on – 1868-yil;  
 2) Namangan – 1876-yil; 3) Jizzax – 1866-yil

**To'g'ri javob: A.**

**Manba:** 9-sinf. "O'zbekiston tarixi" 31-33-betlar. (S.Tillaboyev, A.Zamonov. Toshkent-2019)

13. O'zbekiston Respublikasida quyidagi yillarning nomlanishi mos ravishda ko'rsatilgan javobni toping.

- 1) 2014-yil; 2) 2015-yil;  
 a) "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"; b) "Sog'lom bola yili"; c) "Keksalarni e'zozlash yili"

- A) **1-b, 2-c** B) 1-b, 2-a C) 1-c, 2-a  
 D) 1-a, 2-c

Test topshirig'i O'zbekiston tarixining mustaqillik davriga oid. Ikkinchi qiyinlik darajasidagi test topshirig'i hisoblanadi. a) "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" – 2017-yil; b) "Sog'lom bola yili" – 2014-yil; c) "Keksalarni e'zozlash yili" – 2015-yil.

**To'g'ri javob: A.**

**Manba:** 11-sinf. "O'zbekiston tarixi". 57-93-betlar. (N.Jo'rayev, A.Zamonov. Toshkent-2018)

14. Quyidagi voqealarning sodir bo'lgan yillari mos ravishda to'g'ri berilgan javobni toping.  
 1) Rossiya Sibir xonligiga qarshi Yermak boshchiligida qo'shin yubordi; 2) Rossiya Usmonli davlatining Haj safari yo'lini ochib qo'yish talabini qondirdi; 3) Rossiya va Usmonli davlati o'rtasida urush boshlandi; 4) Sibir xonligi hukmdori Ko'chimxon vafot etdi;  
 a) 1563-yil; b) 1569-yil; c) 1572-yil;  
 d) 1581-yil; e) 1598-yil  
 A) 1-d, 2-c, 3-b, 4-e B) 1-a 2-c, 3-e, 4-d  
 C) 1-d, 2-c, 3-a, 4-e D) 1-a, 2-e, 3-b, 4-d

Test topshirig'i XVI-XIX asr o'rtalarigacha bo'lgan davr tarixiga oid. Uchinchi qiyinlik darajasidagi test topshirig'i hisoblanadi. Yuqorida berilgan voqealarni yillari bilan moslaymiz:

- 1) Rossiya Sibir xonligiga qarshi qarshi Yermak boshchiligida qo'shin yubordi – 1581-yil; 2) Rossiya Usmonli davlatining Haj safari yo'lini ochib qo'yish talabini qondirdi – 1572-yil; 3) Rossiya va Usmonli davlati o'rtasida urush boshlandi – 1569-yil; 4) Sibir xonligi hukmdori Ko'chimxon vafot etdi – 1598-yil.

**To'g'ri javob: A.**

**Manba:** 8-sinf. "O'zbekiston tarixi" 40-bet. (U.Jo'rayev, Q.Usmonov, G.Jo'rayeva, N.Norqulov. Toshkent-2019)

15. Qatag'on qurbonlari bo'lgan o'zbek ziyolilarining oqlanishida tashabbus ko'rsatgan davlat arbobi Nuriddin Muhitdinov faoliyati bilan bog'liq to'g'ri ma'lumotlar berilgan javobni toping.  
 1) 1951-1953-yillarda O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti raisi; 2) 1947-1950-yillarda O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi; 3) 1957-1959-yillarda O'zbekiston Kompartiyasi Birinchi sekretari; 4) 1954-1955-yillarda O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti Raisi; 5) 1957-1961-yillarda KPSS MK Prezidiumi a'zosi

- A) 1, 4, 5 B) 1, 2, 5 C) 2, 3, 4  
 D) 2, 3, 5

Test topshirig'i O'zbekiston tarixining 1917-1991-yillar davriga oid. Uchinchi qiyinlik darajasidagi test topshirig'i hisoblanadi. Nuriddin Muhitdinov 1951-1953-yillarda va 1954-1955-yillarda O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti raisi hamda 1957-1961-yillarda KPSS MK Prezidiumi a'zosi lavozimida ishlagan.

**To'g'ri javob: A.**

**Manba:** 10-sinf. "O'zbekiston tarixi". 111-bet. (Q.Rajabov, A.Zamonov. Toshkent-2017)

16. Qadimda Maurya davlatining poytaxti bo'lgan shaharni belgilang.  
 A) Pataliputra B) Panjob C) Koshalo  
 D) Malla

Test topshirig'i jahon tarixining qadimgi davriga oid. Birinchi qiyinlik darajasidagi test topshirig'i hisoblanadi. Hind sarkardasi Chandragupta Shimoliy Hindistondagi barcha davlatlarni o'z tarkibiga olgan Maurya davlatiga asos solgan. Pataliputra shahri Maurya davlatining poytaxti bo'lgan.

**To'g'ri javob: A.**

**Manba:** 6-sinf. "Qadimgi dunyo tarixi". 65-bet. (A.S.Sagdullayev, V.A.Kostetskiy. Toshkent-2017)

17. IX asr oxiri – X asr boshida qaysi Rus knyazi Vizantiya bilan manfaatli shartnoma tuzib, rus savdogarlariga Vizantiya bilan bojsiz savdo qilish imkonini yaratadi?

- A) **Oleg** B) Yaroslav C) Vladimir  
D) Ryurik

Test topshirig'i jahon tarixining o'rta asrlar davriga oid. Birinchi qiyinlik darajasidagi test topshirig'i hisoblanadi. Knyaz Oleg Vizantiya bilan manfaatli shartnoma tuzadi. Unga ko'ra, Rus savdogarlariga Vizantiyada bojsiz savdo qilishga ruxsat beriladi.

**To'g'ri javob: A.**

**Manba:** 7-sinf. "Jahon tarixi". 38-bet.  
(T.O'.Salimov, F.E.Sultonov.  
Toshkent-2017)

18. Portugaliyaliklarning geografik kashfiyotlardagi muvaffaqiyatlari shahzoda ... bilan bog'liq bo'lgan.

- A) **Genrix Dengizchi**  
B) Bartolomeu Diash C) Vasko da Gama  
D) Fernando Magellan

Test topshirig'i jahon tarixining yangi tarix davriga oid. Birinchi qiyinlik darajasidagi test topshirig'i hisoblanadi.

Portugaliyaliklarning geografik kashfiyotlaridagi muvaffaqiyatlari shahzoda Genrix Dengizchi nomi bilan bog'liq. Bu jasur dengizchi boshlab bergan yangi yerlarni kashf etish va o'zlashtirish jarayoni Portugaliyaga katta shuhrat va boylik keltirgan.

**To'g'ri javob: A.**

**Manba:** 8-sinf. "Jahon tarixi". 8-bet.  
(R.Farmonov, U.Jo'rayev, Sh.Ergashev.  
Toshkent-2019)

19. Quyidagi davlatlardan qaysi birining milliy valutasini "peso" hisoblanadi?

- A) **Meksika** B) Laos C) Hindiston  
D) Braziliya

Test topshirig'i jahon tarixining eng yangi tarix davriga oid. Birinchi qiyinlik darajasidagi test topshirig'i hisoblanadi.

A) Meksikada – peso; B) Laosda – kipa;  
C) Hindistonda – rupiya; D) Braziliyada – real.

**To'g'ri javob: A.**

**Manba:** 11-sinf. "Jahon tarixi". 114-bet.  
(Sh.Ergashev, B.Xodjayeov, J.Abdullayev.  
Toshkent-2018)

20. Germaniyada Bismark hukumati mamlakatda siyosiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida qanday qonunlar qabul qilinishiga erishgan?

- A) **Ishchilar kasal bo'lganda, shikastlanganda, qarilik chog'ida va mehnat qobiliyatini yo'qotganda sug'urta olish to'g'risidagi**  
B) *Ishchilar kasal bo'lganida va shikastlanganida sug'urta olish, yakshanbani dam olish kuni sifatida e'lon qilish to'g'risidagi*  
C) *Ish tashlashlar davrida korxonalar ko'rgan zararni davlat tomonidan qoplanishi to'g'risidagi*  
D) *9 yoshgacha bo'lgan bolalar mehnatidan foydalanishni taqiqlash, qarilik va nogironlik nafaqalarini joriy etish to'g'risidagi*

Test topshirig'i jahon tarixining yangi tarix davriga oid. Ikkinchi qiyinlik darajasidagi test topshirig'i hisoblanadi. Otto fon Bismark hukumati ishchilar kasal bo'lganida, shikastlanganda, qarilik chog'ida va mehnat qobiliyatini yo'qotganda sug'urta olish to'g'risidagi qonunlarni qabul qilgan.

**To'g'ri javob: A.**

**Manba:** 9-sinf. "Jahon tarixi". 33-bet.  
(M.Lafasov, U.Jo'rayev, E.Xoliqov,  
D.Qodirova. Toshkent-2019)

21. 2007-yilda Toshkentda quyidagi qaysi chet el oliy o'quv yurtining filiali ochilgan?

- A) **I.M.Gubkin nomidagi Rossiya neft va gaz davlat universiteti**  
 B) *Singapur menejmentni rivojlantirish instituti*  
 C) *Buyuk Britaniyaning Xalqaro Vestminster universiteti*  
 D) *M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti*

Test topshirig'i O'zbekiston tarixining mustaqillik davriga oid. Ikkinchi qiyinlik darajasidagi test topshirig'i hisoblanadi.

A) I.M.Gubkin nomidagi Rossiya neft va gaz davlat universitetining filiali – 2007-yilda ochilgan. B) Singapur menejmentni rivojlantirish institutining filiali – 2008-yilda ochilgan. C) Buyuk Britaniyaning Xalqaro Vestminster universiteti filiali – 2002-yilda ochilgan; D) M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining filiali – 2006-yilda ochilgan.

**To'g'ri javob: A.**

**Manba:** 11-sinf. O'zbekiston tarixi, 77-bet. (N.Jo'rayev, A.Zamonov Toshkent-2018)

22. XIX asr boshlarida Xiva xonligiga kelgan qaysi rus elchisi o'zining "Esdaliklar" kitobida o'zbek xalqiga xos xususiyatlar haqida to'xtalib, o'zbeklarni "aql-idrokli, suhbatlari yoqimli va o'tkir, qat'iyatli, matonatli, urf-odati oddiy, yolg'on va aldovdan nafratlanuvchi, harbiy ishda hormay-tolmaydigan mard va jasur kishilar" deb ta'riflagan?

- A) **N.I.Muravyov**    B) *N.Ignatyev*  
 C) *I.D.Xoxlov*    D) *R.Baziner*

Test topshirig'i O'zbekiston tarixining XVI-XIX asr o'rtalarigacha bo'lgan davriga oid. Ikkinchi qiyinlik darajasidagi test topshirig'i hisoblanadi. Test topshirig'i matnida berilgan o'zbek xalqiga xos xususiyatlar haqidagi ta'rif keltirilgan "Esdaliklar" asari Rossiya elchisi N.I.Muravyov qalamiga mansub.

**To'g'ri javob: A.**

**Manba:** 8-sinf. "O'zbekiston tarixi" 108-bet. (U.Jo'rayev, Q.Usmonov, G.Jo'rayeva, N.Norqulov. Toshkent-2019)

23. Quyida berilgan voqealardan bir yilda sodir bo'lganlarini aniqlang.

- 1) Ikki nemis davlatini ajratib turgan Berlin devori quladi; 2) Efiopiyada Mengistu Xayle Mariam hukumati ag'darildi; 3) Xitoyning Tyananmen maydonidagi talabalar namoyishi shafqatsizlarcha bostirildi; 4) FATX bilan Isroil o'rtasida muvaqqat kelishuv imzolandi; 5) Timishoara shahrida aholining N.Chaushesku rejimiga qarshi tinch namoyishi Ruminiya maxfiy xizmati tomonidan o'qqa tutildi.

- A) **1, 3, 5**    B) 1, 2, 4    C) 2, 3, 5  
 D) 2, 4, 5

Test topshirig'i jahon tarixining eng yangi tarix davriga oid. Uchinchi qiyinlik darajasidagi test topshirig'i hisoblanadi.

1) Ikki nemis davlatini ajratib turgan Berlin devori quladi – 1989-yil. 2) Efiopiyada Mengistu Xayle Mariam hukumati ag'darildi – 1991-yil. 3) Xitoyning Tyananmen maydonidagi talabalar namoyishi shafqatsizlarcha bostirildi – 1989-yil. 4) FATX bilan Isroil o'rtasida muvaqqat kelishuv imzolandi – 1995-yil. 5) Timishoara shahrida aholining N.Chaushesku rejimiga qarshi tinch namoyishi Ruminiya maxfiy xizmati tomonidan o'qqa tutildi – 1889-yil.

**To'g'ri javob: A.**

**Manba:** 11-sinf. "Jahon tarixi". 10-, 72-, 121-betlar. (Sh.Ergashev, B.Xodjayev, J.Abdullayev. Toshkent-2018)

24. Quyidagi fikrlar kimga tegishli ekanligini toping. "Hech narsani bilmasligimni bilganim uchun ham meni donishmand deb hisoblashsa kerak".

- A) Sokrat B) Demokrit C) Geraklit  
D) Aristotel

Test topshirig'i jahon tarixining qadimgi davriga oid. Birinchi qiyinlik darajasidagi test topshirig'i hisoblanadi. Afinalik mashhur faylasuf Sokrat o'zining dono hikmatlari tufayli shaharning eng aqlli kishisi deb e'lon qilingan edi. Bunga javoban Sokrat shunday degan: "Hech narsani bilmasligimni bilganim uchun ham meni donishmand deb hisoblashsa kerak".

**To'g'ri javob: A.**

**Manba:** 6-sinf. "Qadimgi dunyo tarixi" 113-bet. (A.S.Sagdullayev, V.A.Kostetskiy. Toshkent-2017)

25. XII-XIII asrlarda Fransiyada tashkil etilgan universitetni belgilang.

- A) Tuluza universiteti  
B) Sevilya universiteti  
C) Neapol universiteti  
D) Bolonya universiteti

Test topshirig'i Jahon tarixining o'rta asrlar davriga oid. Birinchi qiyinlik darajasidagi test topshirig'i hisoblanadi. Fransiyada – Tuluza universiteti; Ispaniyada – Sevilya universiteti; Italiyada – Neapol universiteti; Italiyada – Bolonya universiteti tashkil etilgan.

**To'g'ri javob: A.**

**Manba:** 7-sinf. "Jahon tarixi". 115-bet. (T.O'.Salimov, F.E.Sultonov. Toshkent-2017)

26. Mirxond kimning ko'rsatmasi va homiyligi bilan "Ravzat us-safo" asarini yozadi?

- A) Alisher Navoiyning  
B) Abdurahmon Jomiyning  
C) Sulton Husaynning D) Lutfiyning

Test topshirig'i O'zbekiston tarixining o'rta asrlar tarixi davriga oid. Ikkinchi qiyinlik darajasidagi test topshirig'i hisoblanadi. Mirxond Alisher Navoiyning ko'rsatmasi va homiyligi bilan "Ravzat us-safo" (Jannat bog'i) asarini yozadi. Asarda dunyoning yaratilishidan to 1523-yilgacha bo'lgan O'rta Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida bo'lib o'tgan ijtimoiy-siyosiy voqealar keng bayon etilgan.

**To'g'ri javob: A.**

**Manba:** 7- sinf. "O'zbekiston tarixi" 152-bet. (A.Muhammadjonov. Toshkent-2017)

27. Quyidagi voqealar to'g'ri xronologik tartibda berilgan javobni toping.

1) Enriko Fermi Chikagoda ilk atom reaktorini yaratdi; 2) ixtirochilar Boris Grabovskiy va Ivan Belyanskiy tarixda ilk bor harakatlanuvchi tasvirni elektron-nurli trubka yordamida masofaga uzatishni amalga oshirdilar; 3) Buyuk Britaniyaning mashhur radio-korporatsiyasi Bi-bi-si tashkil qilindi

- A) 3, 2, 1 B) 2, 3, 1 C) 2, 1, 3  
D) 3, 1, 2

Test topshirig'i jahon tarixining eng yangi tarix davriga oid. Ikkinchi qiyinlik darajasidagi test topshirig'i hisoblanadi.

1) Enriko Fermi Chikagoda ilk atom reaktorini yaratdi – 1942-yil; 2) ixtirochilar Boris Grabovskiy va Ivan Belyanskiy tarixda ilk bor harakatlanuvchi tasvirni elektron-nurli trubka yordamida masofaga uzatishni amalga oshirdilar – 1928-yil; 3) Buyuk Britaniyaning mashhur radio-korporatsiyasi Bi-bi-si tashkil qilindi – 1927-yil.

**To'g'ri javob: A.**

**Manba:** 10-sinf. "Jahon tarixi". 9-10-betlar. (Sh. Ergashev, B.Xodjayeov, J.Abdullayev. Toshkent-2017)

28. Quyidagilardan Jek London tomonidan yozilgan asarlarni toping.  
 1) “Jasoratning qonli belgisi”; 2) “Dengiz bo‘risi”; 3) “Bir parcha go‘sh”; 4) “Hayotga muhabbat”; 5) “Qurol va inson”; 6) “Biz va qo‘shnilarimiz”.  
 A) 2, 3, 4    B) 1, 3, 5    C) 2, 4, 6  
 D) 1, 5, 6

Test topshirig‘i jahon tarixining yangi tarix davriga oid. Uchinchi qiyinlik darajasidagi test topshirig‘i hisoblanadi.

- 1) “Jasoratning qonli belgisi” – Stiven Kreyn; 2) “Dengiz bo‘risi” – Jek London; 3) “Bir parcha go‘sh” – Jek London; 4) “Hayotga muhabbat” – Jek London; 5) “Qurol va inson” – Bernard Shou; 6) “Biz va qo‘shnilarimiz” – G.Bicher-Stou.

**Tog‘ri javob: A.**

**Manba:** 9-sinf. “Jahon tarixi” 152-bet. (M.Lafasov, U.Jo‘rayev, E.Xoliqov, D.Qodirova. Toshkent-2019)

29. Xaritada yulduzcha bilan belgilangan qadimgi davlat tarixi bilan bog‘liq to‘g‘ri ma‘lumotni toping.



- A) **Ilk bor Olimpiya o‘yinlari o‘tkazilgan**  
 B) *Panteon ibodatxonasi barpo etilgan*  
 C) *40 metrli Trayan ustuni qurilgan*  
 D) *Ajanta ibodatxonalari bunyod etilgan*

Ushbu test topshirig‘i abituriyentning xaritadan foydalanib o‘zining nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llay olishini tekshiradi. Ikkinchi qiyinlik darajasidagi test topshirig‘i hisoblanadi. Dastlab xaritada yulduzcha ostida berilgan davlatni aniqlaymiz. Bu Qadimgi Yunoniston davlati. Keyin shu davlat tarixi bilan bog‘liq bo‘lgan voqeani topamiz.

- A) Ilk olimpiya o‘yinlari o‘tkazilgan – mil.avv. 776-yilda Yunonistonda. B) Panteon ibodatxonasi barpo etilgan – Rimda. C) 40 metrli Trayan ustuni qurilgan – Rimda. D) Ajanta ibodatxonasi bunyod etilgan – Hindistonda.

**To‘g‘ri javob: A.**

**Manba:** 6-sinf. “Qadimgi dunyo tarixi”. 105-bet. (A.S.Sagdullayev, V.A.Kostetskiy. Toshkent-2017)



30. Quyidagi jadval asosida mos siyosiy voqealarni toping.

№	Davlat	Voqea	Yil
1.	Yaponiya	Markaziy Vyetnam ustidan rasmiy hukmronligidan voz kechdi	1884
2.	Rossiya	Ikkinchi Davlat dumasida saylov o'tkazildi	1907
3.	AQSh	"Monro doktrinasi" qabul qilindi	1823
4.	Buyuk Britaniya	Ikkinchi parlament islohoti o'tkazildi	1867
5.	Germaniya	Ikkinchi marta imperiya deb e'lon qilindi	1875
6.	Avstriya- Vengriya	Konstitutsiya qabul qilindi	1914

A) 2, 3, 4    B) 1, 5, 6    C) 1, 3, 4    D) 2, 5, 6

Test topshirig'i jahon tarixining yangi tarix davriga oid. Uchinchi qiyinlik darajasidagi test topshirig'i hisoblanadi. Ushbu test topshirig'i abituriyentdan turli tarixiy davrlarda va davlatlarda bo'lib o'tgan voqealarni tahlil qilish, ularni qiyoslashni talab etadi hamda tahlil asosida jadval qatorlaridagi mos to'g'ri ma'lumotlar aniqlanadi.

2) Rossiya – Ikkinchi Davlat dumasida saylov o'tkazildi – 1907-yil; 3) AQSh – “Monro doktrinasi” qabul qilindi – 1823-yil; 4) Buyuk Britaniya – Ikkinchi parlament islohoti o'tkazildi – 1867-yil.

**To'g'ri javob: A.**

**Manba:** 8-sinf. “Jahon tarixi”. 100-bet. (R.Farmonov, U. Jo'rayev, Sh.Ergashev. Toshkent-2019)

9-sinf. “Jahon tarixi”. 58-,75-betlar. (M.Lafasov, U.Jo'rayev, E.Xoliqov, D.Qodirova. Toshkent-2019)